

"O'zkimyosanoat" AJ korxonalarida xarid tizimi ochiqlik sari

// 18.12.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-korxonalarida-xarid-tizimi-ochiqlik-sari>



Bugun mamlakatimizda davlat ishtirokidagi yirik korxonalar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan, "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tarmoq korxonalarida xarid tizimini takomillashtirish, uni ochiq va adolatli asosda tashkil etish muhim vazifalardan biriga aylangan.

Xarid jarayonlari kimyo sanoati korxonalari faoliyatida katta o'rin tutadi. Ishlab chiqarish uchun zarur xomashyo, asbob-uskuna va xizmatlar o'z vaqtida sifatli xarid qilinishi korxonalarning barqaror ishlashiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois, xarid tizimida shaffoflikni ta'minlash nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki jamoatchilik ishonchini mustahkamlash uchun ham xizmat qiladi.

Davlat xaridlari jarayonini yanada soddalashtirish va ularni to'liq raqamlashtirish, ushbu sohada jamoatchilik nazorati hamda raqobat muhitini yanada kuchaytirish orqali tadbirkorlik subyektlarining ishtirokini kengaytirish bugunning talabi. Shu ma'noda "O'zkimyosanoat" AJ tizimida xaridlar elektron platformalar orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa tender va tanlov jarayonlarida inson omilini kamaytirish, barcha ishtirokchilar uchun teng sharoit yaratish imkonini berayapti. Xarid rejaları, tanlov shartlari va g'oliblar haqidagi ma'lumotlarning ochiq e'lon qilinishi ochiqlikni ta'minlashda muhim qadam hisoblanadi.

"O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalari tomonidan 2025-yilning 9 oyi davomida davlat xaridlari yo'nalishida jami 3 872 ta shartnoma tuzilgan bo'lib, ularning barchasi amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshirildi. Bu esa o'z navbatida qonuniylik, shaffoflik va xolislikni ta'minlash, narx-navo manipulyatsiyasi va boshqa suiste'molchiliklarga yo'l qo'ymaslik imkonini berdi.

Ochiq va raqobatli xaridlar natijasida korxonalar sifatli mahsulotlarni maqbul narxlarda xarid qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga va mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mahalliy tadbirkorlar uchun ham xarid jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlari kengaymoqda.

Davlat xaridlari tizimi jamiyat va iqtisodiyot uchun o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning shaffofligi davlat mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlaydi. Xalqaro tajribaga ko'ra, davlat xaridlarining samarali boshqarilishi korrupsiyaning oldini olishda va byudjet mablag'larini oqilona taqsimlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Albatta, har qanday tizimda xarid jarayonlarida ayrim kamchiliklar uchrab turishi mumkin. Ammo bu borada ichki nazorat va audit mexanizmlarini kuchaytirish, sohada faoliyat yuritayotgan xodimlarning malakasini oshirish orqali muammolarni bartaraf etish choralari ko'rilmogda.

Xulosa qilib aytganda, "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarida xarid tizimini ochiq va shaffof asosda tashkil etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar iqtisodiy samaradorlikni oshirish, korrupsiyaga qarshi kurash va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu esa albatta, kimyo sanoati tarmog'ining barqaror rivojlanishi uchun mustahkam poydevor bo'ladi.

Olim Rasulov

G'aznachilik operatsiyalari va xaridlar bo'limi boshlig'i